

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRINING BADIY-USLUBIY QATLAMLARI VA ULARNING POETIK FUNKSIYASI

Annotatsiya: O'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada yozuvchi asarlarida muallif nutqi, personaj nutqi, xalqona til unsurlari, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlarning badiiy matndagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu qatlamlarning syujet rivoji, obraz yaratish hamda qahramon ruhiy holatini ochib berishdagi funksional ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada adabiy-tahliliy, stilistik va qiyosiy metodlardan foydalanilib, Shukur Xolmirzayev nasriga xos soddalik va chuqur mazmun uyg'unligi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi asosiy poetik xususiyatlardan biri ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek nasri, badiiy uslub, uslubiy qatlamlar, poetik funktsiya, muallif nutqi, personaj nutqi, xalqona til, badiiy individuallik.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ХУДОЖЕСТВЕННО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПЛАСТЫ ПРОЗЫ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА И ИХ ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

Аннотация: Проза одного из выдающихся представителей узбекской литературы Шукура Холмирзаева отличается своеобразием художественно-стилистических пластов и их поэтической функции. В данной статье анализируется роль таких стилистических пластов, как авторская речь, речь персонажей, элементы народного языка, диалог и внутренний монолог в художественном тексте произведений писателя. Научно обосновано функциональное значение этих пластов в развитии сюжета, создании образов и раскрытии внутреннего мира героев. В статье с применением литературно-аналитического, стилистического и сравнительного методов доказывается, что гармония простоты и глубинного содержания является одной из основных поэтических особенностей, определяющих творческую индивидуальность прозы Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: узбекская проза, художественный стиль, стилистические пласты, поэтическая функция, авторская речь, речь персонажей, народный язык, художественная индивидуальность.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary
Education, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ARTISTIC AND STYLISTIC LAYERS OF SHUKUR KHOLMIRZAEV'S PROSE AND THEIR POETIC FUNCTIONS

Abstract: *The prose of Shukur Kholmirzaev, one of the prominent representatives of Uzbek literature, is distinguished by the originality of its artistic and stylistic layers and their poetic functions. This article analyzes the role of such stylistic layers as authorial narration, character speech, elements of folk language, dialogue, and interior monologue in the writer's literary works. The functional significance of these layers in plot development, character creation, and the revelation of characters' inner worlds is examined on a scholarly basis. Using literary-analytical, stylistic, and comparative methods, the study substantiates that the harmony of simplicity and profound meaning is one of the key poetic features that define the creative individuality of Shukur Kholmirzaev's prose.*

Keywords: *Uzbek prose, artistic style, stylistic layers, poetic function, authorial narration, character speech, folk language, artistic individuality.*

Kirish

O'zbek nasri taraqqiyotida badiiy uslub masalasi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotida nasriy tafakkurning yangilanishi, badiiy ifoda vositalarining boyishi va uslubiy qatlamlarning rang-baranglashuvi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda Shukur Xolmirzayev ijodi o'ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlari, hayotiylikka asoslangan tasvir usuli va xalqona til imkoniyatlaridan samarali foydalanishi bilan alohida ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev nasrida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog, ichki monolog hamda xalqona til unsurlari bir-biri bilan uzviy bog'lanib, badiiy matnning yaxlit poetik tizimini shakllantiradi. Ushbu uslubiy qatlamlar nafaqat voqea-hodisalarni bayon etishda, balki qahramon xarakterini ochishda, ularning ruhiy kechinmalarini ifodalashda va syujet rivojini ta'minlashda muhim poetik funksiyani bajaradi. Yozuvchi nasriga xos soddalik tashqi ko'rinishda bo'lsa-da, uning ichki mazmuni falsafiy teranlik va psixologik chuqurlik bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy uslub va yozuvchi individualligi masalasi turli davrlarda yetakchi tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilgan. Xususan, nasriy asarlarda muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlarning poetik funksiyasi badiiy matn tahlilining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Bu borada o'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar mazkur maqola uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

M.Qo'shjonovning o'zbek nasri taraqqiyotiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida XX asr ikkinchi yarmi nasrining yetakchi tamoyillari, xususan, hayotiylik va badiiy soddalik masalalari keng yoritilgan. Adabiyotshunos olim Shukur Xolmirzayev ijodini real hayot tasviriga asoslangan nasriy tafakkur namunasidir, deya baholab, yozuvchi uslubida xalqona ifodaning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Biroq ushbu qarashlar umumiy xarakterda bo'lib, badiiy-uslubiy qatlamlarning poetik funksiyasi alohida tahlil qilinmagan.

U.Normatovning nasr poetikasiga oid ilmiy ishlari badiiy asarda uslubiy qatlamlar muammosini tahlil qilishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Adabiyotshunos olim nasriy matnda muallif nutqi va personaj nutqining o'zaro munosabati, ichki monologning psixologik vazifasi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. U.Normatovning ushbu nazariy qarashlari Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, qator ilmiy maqola va monografiyalarda Shukur Xolmirzayev ijodida obraz yaratish, psixologik tahlil va hayotiylik masalalari yoritilgan bo'lsa-da, yozuvchi nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasi masalasi kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, ularni badiiy matn tahlili asosida rivojlantirish va Shukur Xolmirzayev nasrining poetik tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga e'tiborni qaratdik.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan zamonaviy va an'anaviy metodlardan kompleks tarzda foydalandik.

Maqolada adabiy-tahliliy metod yozuvchi hikoya va qissalaridagi badiiy-uslubiy qatlamlarni aniqlash hamda ularning matndagi o'rnini belgilashda asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi unsurlar badiiy kontekstda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tavsifiy metod yordamida uslubiy qatlamlar tizimlashtirildi va ularning poetik funksiyalari izchil tavsiflab berildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar umumlashtirish va xulosa chiqarish orqali ilmiy asosda mustahkamlandi.

Tahlillar va natijalar

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atini ustози Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz ko'plab hikoya, qissalarida aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo'lib gavdalandi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi. O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e'tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko'rinadiki, bu kitobxonni o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm kitobxon e'tiboriga havola etiladi. Har bir kitobxon qanday asar o'qimasin o'qigan asar qahramonlarining taqdirini o'zi xohlaganidek bo'lishini istaydi. Adibning "Qorbobo keladi" hikoyasida bola obrazi ruhiyati ifoda etilgan. U bola bo'lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o'zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o'zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan. Yozuvchining "Bahor" hikoyasida esa tog'li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg'onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan. "Jo'raboshi"[5, 115] hikoyasi o'zlarini ko'chaning "xo'jayinlari" deb biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. "Ko'cha xo'jayinlari" ning boshlig'i Habibulla ismli bola bo'lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o'z "ishchilari" bilan xayrlashishi, ularga vazifalar tayinlashi arafasida ulardagi ruhiyatning o'zgarishi orqali bolalar hayotini tasvirlaydi. Bolalik, o'smirlik,

o'spirinlik davri va ular bilan xayrlashuv sifatida ifoda etiladi. Adibning "Nasib etsa" [5, 177] hikoyasida haqiqatgo'y bola to'g'risida gap boradi. Elyor Bo'ritosh opasini juda yaxshi ko'radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdikapalak bo'lib o'ynar, u bilan sihatlashar edi. Bo'ritoshni qishlog'idan Berdiyori yaqinida olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog'i to'g'risida o'zini qiziqtirgan savollarni beraveradi. Shu orqali bola ruhiyati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Adib bola ruhiyati orqali inson hayotidagi o'zgarishlarning ta'sirini ushbu hikoyada tasvirlaydi va buning uddasidan chiqadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko'proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarga e'tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo'lgan jihatlarini ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalar keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o'xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko'p qismini egallab turadigan jarayon bu-o'yin. Yozuvchi hikoyalarida o'yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o'yinning qanday o'ynalishi, o'ynalish qonun-qoidalari haqida ham to'xtalib o'tadi. Bundan yozuvchining o'zbek milliy o'yinlari turkumiga kiruvchi o'yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz. Yozuvchi hikoyalarida murg'ak bolaning ko'nglidan o'tayotgan tuyg'ularni mahorat bilan ochib bergan. Ko'ngil oynasi bir sinsa, yoki lat yesa qayta tuzatib bo'lmaydigan, shisha misoli. Ko'ngil bir ozor yesa o'z holiga kelishi, avvalgiday bo'lishi qiyin. Shukur Xolmirzayev bola obrazini yaratar ekan bu jihatlarini ham yoddan chiqarmaydi va uni mahorat bilan ko'rsata oladi.

Sh.Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo'ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katta imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning o'ziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan J.London, E.Xeminguey, S.Tompson asarlarining yozuvchi ijodiga ta'siri ham kattadir. Adabiyotshunos olim U.Normatov "Zaminda yashaymiz, zaminni

o‘ylaymiz” maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: “Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...”[4]. Shu nuqtayi nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko‘zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Masalan, “Cho‘loq turna” hikoyasida adib hayotning qushlar turmushidagi abadiy beshafqat qonuniyatini bayon qiladi. Qur‘oni karimdagi bir oyat mazmuniga ko‘ra, “yerda qimirlagan jonzot, osmonda qo‘sh qanotini qoqib uchadigan qushlar borki, ular ham insonlarga o‘xshab jamoa tashkil qilib yashaydi”. Lekin ularning insoniyatdan farqi bor. Ona turnaning cho‘loq bolasiga beparvoligini tasvirlab, adib shunday yozadi: “Illo bu tur qushlarning ham o‘ziga yarasha mehr-shafqati bo‘ladi. Bo‘ladi-yu, lekin o‘zga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu — yashamoq Qonuni, zurriyot qoldirish va uning sog‘lom kamol topib, o‘zining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga bo‘lgan tabiiy va tug‘ma ehtiyoj qonunidir. Shuning uchun ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi og‘ir bo‘lgan farzandlaridan osongina voz kechishadi”[6, 223]. Shu nuqtada inson bilan hayvonning ulkan farqi ochiladi: odamzod o‘zining nogiron va xasta bolasini ham hayoti boricha asrab-avaylab, ardoqlab yashaydi, jamiyat hayotiga undan biror naf, aqliy-ma‘naviy biror foyda tegishini ta‘minlaydi. Hayvonlar, qushlar qonuni — bunga zid, o‘ziga xos beshafqat qonun.

Yuqoridagi tahlillardan kuzatiladiki, yozuvchi asarlarida uslubiy qatlamlar bir-birini to‘ldiruvchi va badiiy butunlikni ta‘minlovchi muhim poetik unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, adib asarlarini tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy natijalarga kelindi:

1)Shukur Xolmirzayev nasrida badiiy-uslubiy qatlamlar o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit poetik tizimni tashkil etadi;

2)muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monologning uyg‘unligi badiiy matnning estetik ta’sirchanligini oshiradi;

3)xalqona til unsurlarining faol qo‘llanilishi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi yetakchi poetik xususiyatlardan biridir;

4) yozuvchi nasriga xos soddalik va mazmun teranligi badiiy-uslubiy qatlamlar orqali samarali namoyon bo‘ladi.

Mazkur natijalar Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy tabiatini chuqurroq anglashga, shuningdek, o‘zbek nasri poetikasini o‘rganishda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Xulosa

Yozuvchi asarlarida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlar bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlaydi va badiiy matnga yaxlit poetik tizim hosil qiladi. Bu qatlamlarning syujet rivojini ta’minlash, qahramon xarakterini ochish va ularning ruhiy holatini ifodalashdagi funksional ahamiyati aniqlanadi.

Shuningdek, Shukur Xolmirzayev nasrida xalqona tilning faol qo‘llanilishi badiiy-uslubiy qatlamlarning muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat voqealarni hayotiy va tabiiy tarzda tasvirlashga xizmat qiladi, balki yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi asosiy poetik xususiyatlardan biri sifatida o‘z rolini bajarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub.-Toshkent: Fan, 1992.-B. 52-58.
- 2.Hamidova M.O.Shukur Xolmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 3.Normatov U. Yetuklik.-Toshkent: Adabiyot va san'at.-1982
- 4.Normatov U. (1982). Problems of style, artistic form. Maturity 356.
- 5.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. 448 b.
- 6.Xolmirzayev Sh. Cho‘loq turna: hikoyalar.- Toshkent: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023.-256 b.